

KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING MUSTAHKAMLANISHIGA OID NORMALAR

Akmalov Hamid Akmal o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

e-mail: hamidakmalov999@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan Qomusimizga kiritilgan yangi moddalar, normalar va ularning tahlili bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, referendum, norma, demokratik davlat, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, inson huquqlari, Habeas korpus, Miranda qoidasi.*

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi to'g'risidagi qonunni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya joriy yilning 1-may sanasidan kuchga kirganligi e'lon qilindi. Yangilangan konstitutsiya VI bo'lim, XXVII bob va 155 moddani o'z ichiga qamrab oladi.

Bosh Qomusimizda bo'lgan o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, undagi moddalar 128 tadan 155 taga o'zgardi, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshgan. Asosiy qonunning 65 foiz matni yangilandi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o'zgarishlar asosan quyidagi yo'nalishlarda aks etgan: inson huquq va erkinliklari sohasi; tadbirkorlik va xususiy mulk sohasi; axborot sohasi; ijtimoiy soha; tibbiyot va ekologiya sohalari; ilm-fan, ta'lim-tarbiya va yoshlar sohasi; sud-huquq sohalari. Konstitutsiyamizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida xalqimizdan ko'plab takliflar kelib tushdi. Kelib tushgan takliflar soni 222,715 tani tashkil etgan bo'lib, ularning 25 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan. Takliflar statistik tahlil etilganda 60 foizi yoshlar tomonidan bildirilganligi ma'lum bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarga oid alohida bob va moddalar kiritilib, XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deya nomlandi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan davlat siyosati darajasidagi e'tiborning yanada ortib borayotganligidan dalolatdir.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlarini himoya qilishga oid quyidagi 9ta eng muhim normalar kiritildi va Qomusimizda quyidagi shakllarda mustahkamlab qo'yildi:

1) shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart;

2) shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin;

3) aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak;

4) agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas;

5) shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas;

6) shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas;

7) hibsga olish, qamoqqa olish va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi;

8) yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishini cheklashga hamda uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi;

9) har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi [2, 59-60-b.].

Shaxsiy huquq va erkinliklar – tabiiy huquq va erkinliklar bo'lib, insonning hayoti, sog'lig'i, or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan huquqlar guruhi hisoblanadi [3, 28-b.].

Yangilangan Konstitutsiyamizga kiritilgan inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, inson huquq va erkinliklari sohasida ko'plab normalar kiritildi. Jumladan, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 25-moddasiga ko'ra O'zbekistonda o'lim jazosi ta'qiqlanadi. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2008-yildan barcha jinoyatlar uchun o'lim jazosi bekor qilingan, lekin konstitutsiyada emas balki jinoyat qonunchiligida o'z aksini topgan edi.

O'lim jazosi ta'qiqlanishining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi insonni hayotdan xatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Ushbu norma bilan davlatimiz bu jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik g'oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qiladi. Misol sifatida bugungi kunda 106 ta davlatda o'lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Ayrim davlatlar o'z tajribalarida o'lim jazosini qonunlari bilan bekor qilsa-da, konstitutsiyada bo'lmaganligi bois uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan. Shuningdek, sudlar ham xatolarga yo'l qo'yish xavfini inkor etib bo'lmaydi. Shunday ekan o'lim jazosi tayinlangan shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo'lsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday iloji yo'q. Shu nuqtayi nazardan Qomusimizga kiritilayotgan O'zbekistonning qat'iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti, uning qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda mazkur jazo turini qaytarish va qo'llash bo'yicha har qanday tashabbuslarni qat'iy ravishda cheklaydi. Pirovardida har bir inson xatto u jinoyat sodir etgan bo'lsa ham uning yashash huquqi kafolatlanishiga xizmat qiladi [4].

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida har bir shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga yo'naltirilgan bir necha eng muhim tamoyillar mustahkamlanmoqda. Unda, xususan, insoning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ekanligi va hech bir narsa ularni kamsitish uchun asos bo'la olmasligi ko'zda tutilgan. Shuningdek, 26-moddada qiynoqqa solish, zo'ravonlik, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etish, shaxsning roziligisiz tibbiy yoki

ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Tarix shundan guvohlik beradiki, uzoq vaqt davomida ko'p davlatlarda qiynoqlar amalda qo'llanilgan. Odatda, qiynoqlar so'roq qilinayotgan shaxs saqlayotgan muhim ma'lumotni qo'lga kiritish, shuningdek o'lim jazosini amalga oshirish jarayonida og'riqni kuchaytirish va azoblash maqsadida qo'llanilgan. Hozirgi paytda qiynoqlarning ta'qiqlanishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiyada, Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasida, Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasida va boshqa hujjatlarda mustahkamlanib qo'yilgan.

Insoning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ekanligi, qiynoqqa solish, zo'ravonlik, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etish, shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmasligining Konstitutsiyada belgilanishi jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini mustahkamlashga, xalqaro maydonda O'zbekiston obro'yini yanada oshirishga, shuningdek insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi [5].

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi bu – har bir inson tug'ilishi bilan qo'lga kiritadigan, har kim erkin, o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilishi, o'zganing shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon yetmaydigan tarzda yurish-turishni tanlash imkonini beruvchi huquqdir. Shaxsning erkinligi jamiyatdagi axloq me'yorlari doirasidan chiqmasligi va qonun asosida bo'lishi kerak, ya'ni shaxs har qanday harakatni qonun va qonun hujjatlarida man etilmagan va huquqiy ko'rsatmalarga zid kelmagan taqdirda amalga oshirishi mumkin [6, 137-b.].

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo'yicha muhim institutlardan biri – "Xabeas korpus" shaxs erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sudning qarori asosida amalga oshirilishi shartligi talabidir. Bu qoida shaxsiy erkinlik daxlsizligini kafolatlab, tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan. Bu yangi normaning ahamiyati shundaki, sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxsni asossiz hibsga olish holatlarini bartaraf etishga, natijada tergov davomida insonning ozodligini cheklash bilan bog'liq bo'lgan xatolarga yo'l qo'yimaslikka xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu moddadagi yana bir muhim jihatni ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan muhim kafolat, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxs ushlab turilgan vaqtdan e'tiboran 48 soat o'tgunga qadar sudga ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi to'g'risida masalani hal qilish uchun olib borilishi kerak. Agar ushlab turishning qonuniyligi va asosiligi sudga isbotlanmasa shaxs darhol ozod qilinishi kerak degan norma belgilandi. Ushbu modda shaxs erkinligi va daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida xizmat qiladi. Mazkur norma mamlakatimiz konstitutsiyasida ham "Xabeas korpus" tizimi joriy etilganligini anglatadi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 28-moddasida qayd etilishicha, "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi

yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlanadi” deb belgilab qo‘yildi. Ushbu normani kiritishda birinchi o‘rinda xalqimizdan kelib tushgan takliflar va shu bilan birga xalqaro normalar ham hisobga olingan. Ya‘ni, ushbu modda “Miranda qoidasi”ni o‘zida aks ettirgan. Miranda qoidasining mazmuni shundan iboratki, jinoyatda gumon qilinib ushlangan shaxsga nisbatan tegishli idora xodimlari tomonidan bosim o‘tkazilishini istisno qiladi. Bu esa inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari – oliy qadriyat degan ezgu tamoyilni amaliyotda keng tadbiq etishga imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. –T.: O‘zbekiston, 1996. - 170b.
2. Konstitutsiyadagi yangi normalar va ularning tahlili. F.Q.Qutlimuratov, H.A.Akmalov. (Metodik qo‘llanma) -Nukus; 2023. -84b.
3. Inson huquqlari. A.R.Mo‘minov, M.A.Tillaboyev. Darslik. Ikkinchi nashr. –T.: Adolat, 2013. -290b.
4. Akmalov Hamid Akmal o‘g‘li. (2023, Aprel). Yangilanayotgan konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, sud-huquq sohasidagi islohotlar. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№22.
5. L.Yugay. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada qiynoqlarning ta‘qiqlanishi kafolatlari mustahkamlanmoqda. “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi” yagona milliy portali. URL: <https://meningkonstitutsiyam.uz> (ko‘rilgan sana: 21.11.2023-y.)
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. -T.: “O‘zbekiston” 2013. -590 b.